



YANGIYO‘LNING QUIY CHIRCHIQ BILAN CHEGARADOSH BO‘LGAN NIYOZBOSH MAHALLASI NOMINI KELIB CHIQISH

Mirzaraxmedova Firuza Nigmatovna

*Renessans ta'lim universitetining mustaqil tadqiqotchisi
elektron pochta: mirzaRaxmedova F2_1@*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangiyo‘l tumanining janubi-g‘arbiy tomoni bilan chegaradosh bo‘lgan Niyozbosh mahallasining kelib chiqish tarixi va olib borilgan ishlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Niyozbosh, toponim, antroponim, Quyi Chirchiq, Jizzax, ko‘chmanchi, ovchilik.

Аннотация: Даны сведения об истории микрорайона Ниёзбош, граничащего с юго-западной частью Янгиёльского района, и проведенных работах.

Ключевые слова: Ниёзбош, топоним, антропоним, Нижний Чирчик, Джизак, кочевник, охота.

Abstract: Information about the history of the Niyozbosh neighborhood bordering the south-western part of Yangiyol district and the work carried out is given.

Key words: Niyozbosh, toponym, anthroponym, Lower Chirchik, Jizzakh, nomad, hunting.

KIRISH

Ma’lumki, Toshkent qadimiy tarixga ega bo‘lgan maskanlardan sanaladi va u O‘rta Osiyo hududidagi qadimgi madaniyat markazlaridan biri hamdir. Hozirda Toshkent viloyatida joylashgan Yangiyo‘l tumani ham shunday joylardandir. Yangiyo‘l tumani o‘zining qulay geografik joylashuvi, qadim tarixi, boy madaniy merosi bilan kishilik tarixida o‘chmas iz qoldirgan va qoldiradigan maskanlardan biridir. Yangiyo‘l tumanida joylashgan qishloqlar va mahallala xususida ham xuddi shunday fikrlarni aytish mumkin. Niyozbosh qishlog‘i ham shular jumlasidandir. Niyozbosh mahallasining nomi qanday tashkil topgan?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Niyozboshning tarixi va kelajagi haqida fikr yuritishga harakat qildik. Qishloq tarixi qo‘lyozmasining so‘zboshisida Azimiy **Tursunboy** ota jumladan shunday yozgan edi: “Men 30 yoshimda, ya’ni 1938-yildan boshlab Niyozbosh hududi tarixi bilan qiziqqa boshladim. Keksa, mo‘ysafid otaxonlar va ilmiy kishilardan qishloq tarixi haqida biror bir hujjat (yozma ma’lumot)

qolmaganligini aniqlagach, bu haqda ularning o‘zlaridan ma’lumotlarni yozib olishga kirishdim.

Avvalo, sho‘ro tuzumida qatnashgan eski firqa a‘zolari va boshqa otalarning uylariga borib suhbatlashishga to‘g‘ri keldi. 46 yil ichida yuzlab kishilar bilan so‘zlashib, ulardan olgan ma’lumotlarimni bir-biriga solishtirib chiqqanimda, faqat eng Yoshi ulug‘ – Mirzaqosim hoji ota Tojiboy Mahsum va Topil Umarovlarning so‘zlari bir-biriga g‘oyatda yaqin kelganini aniqlab, ular aytgan gaplarni qishloq tarixi uchun asos qilib oldim.

Qo‘lingizdagi qishloq tarixi (qo‘lyozmasi) esdalik uchun, kelajak yosh avlodlarga qoldirish uchun 46 yildan beri yiqqan mahsulimdir. Kamchiliklariga uzr”.[1]

Azimiy tartib bergan va chin ma’noda muallifi Azimiy bo‘lgan bu risola qishloqning tarixi, uning buguni va kelajagi, zamondoshlarimiz haqida hikoya qiladi. Zero, Niyozbosh qishlog‘ida yashayotgan, qishloqdan tashqarida umrguzaronlik qilayotgan yuzlab-minglab niyozboshliklar uchun shoir aytganidek, “Vatan - jon-u tan, butun iymon demak”dir.

Nima uchun Niyozbosh deb nom berishdi? Har bir joyning avvaldan atalgan nomi bo‘ladi. Niyozboshliklarning kelib chiqish tarixini xalq orasida quyidagicha talqin etilib kelinadi. Jizzax shahri tomonlarda aka-ukalar yashashgan ekan, bir-biri bilan shunchalar inoq ekanki, ularga doimo hammaning havasi kelarkan. Aka ukasini qanchalar izzat qilsa, uka aka hurmatini shunchalar joyiga qo‘yar ekan, topga-tutganlari har doim o‘rtada ekan. Ularning yaqinlari, qarindosh-urug‘lari qanday yumush bilan shug‘ullanganliklarini bilmadim-u, biz yod etayotgan aka-uka ov qilib kun ko‘rar ekan. Kamondan otgan o‘qlari kamdan-kam xato ketar ekan. Aka-ukalar kunlardan bir kun yo‘l taraddudini ko‘rib safarga otlanibdilar. O‘lja ilinjida kattakon daryo oqib o‘tadigan tarafga qarab yo‘l yuribdilar, yo‘l yursalar ham mo‘l yuribdilar. Ittifoqo, kutilmaganda nog‘ora-yu karnay-surnaylarning tovushi uzoq-uzoqlarga taralayotgan, bazm-u jamshid avjga chiqqan saylgohga kelib qolibdilar. Razm solib qarasalar, bir yonda dorbozlar dorga chiqishgan, bir tomonda qiziqchilar qiziqchilik qilishgan, chinordek arslon kelbatli pahlavonlar terga botib kurash tushishayotgan emishlar. So‘rab-surishtirsalar bellashayotgan polvonlar ikki yurt – ikki el boshliqlarining bahodirlari ekanlar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘sha davrda polvonlar olishuvida kim g‘olib bo‘lsa, o‘shanga xohlagan narsasi tortiq qilingan. Beklarning oyoqlari doimo saroylarda bo‘lgan. Ularning qo‘llari ostida shahar va viloyat hududiga teng keladigan yerlari bo‘lgan. O‘sha beklarning polvonlari bir-birlari bilan kuch sinashayotgan emishlar. Bir bekning polvoni ikkinchi bek polvoni kuragini yerga tekkizgani tekkizgan edi. Bir tomonning polvonlari batamom yengilgach, g‘olib tomon polvonlari o‘zaro kurash tushishi musobaqani yana ham qiziqitishibdi. Bellasha-bellasha, olisha-olisha polvonlarning polvoni, bekning eng ishongan pahlavoni maydon o‘rtasida qaddini g‘oz tutganicha qolibdi. Shunda bekning yasavullari kurash maydoniga chiqishib, g‘olib polvonning kuragini kimda-kim yerga tekkizsa, bek unga istagan narsasini hadya qilishini ma’lum qilishibdi.[2]

Aka-ukalar shu tobda kurash tushishni ixtiyor etibdilar. Aka “Men kurashaman” desa, uka “Aka, qo‘yavering, men o‘zim kurashaman” dermish. Aka-ukalar bahslasha-bahslasha oxiri bir fikrga kelishibdi. Yengilmas bahodir bilan dastlab aka olishadigan bo‘libdi. Ovchilik bilan shug‘ullanib kun kechirgan akaga qushlarni ovlashdagi aqli, baliqlarni ovlashdagi tezligi qo‘l kelibdi. Jasur pahlavonni yenggan aka bekning yoniga tilagini aytish uchun boribdi. Bek unga yuzlanib “tila tilagingni” degan ekan, aka o‘zi va ukasining ovchi ekani, Jizzax degan yurtdan yo‘l yurib kelishayotganini aytib, Sirdaryodagi ko‘llardan birini ixtiyorlariga berishini so‘rabdi. So‘ragan ko‘lining suvi nihoyatda tiniq, musaffo bo‘lgani uchun u “Ko‘lizangar” deyilar ekan. Bek bu iltimoslarni qabul qilib, aka-ukaga ko‘lni in‘om qilibdi.[3]

Aka-ukalar kunduzlari kamon bilan parranda ovlab, kechalari qushlarga tuzoq qo‘yib ko‘l bo‘yida yashay boshlabdilar. Ko‘lda suzib yurgan yovvoyi o‘rdaklarni tutishni antiqa yo‘llarini o‘ylab topibdilar. Ular shu yaqin o‘rtada yashovchi dehqonlardan oshqovoqlarni o‘ljalarga ayirboshlab, qovoqlarning ichini obdon qirganlar va ularni boshlariga kiyib suvda suzib yurgan yovvoyi o‘rdaklarni yoniga ehtiyotkorlik bilan borib, oyoqlaridan shartta ushlab olishgan.

Aka-ukalar ancha vaqt shu zaylda yashaganlar. Keyin ob-havo to‘g‘ri kelmay qolibmi, yo ovlaridan baraka qochibmi, xullas, yurt boshlig‘idan Yallama degan joyni so‘rab olibdilar. Yana oz fursat o‘tgach Toshkentning naq Arpa-poyasini so‘rabdilar.

Saxiy bek har galgidek bu safar ham aka-ukalarning iltimosini qondiribdi. U vaqtlarda qadim Toshkent va uning atrofi sersuv, sero‘tloq, yam-yashil bog‘-rog‘larga kon joylar bo‘lgan ekan. Arpa-poyaga kelgan aka-ukalar hozirgi Qo‘yliq tomondan Chirchiq yoqalab yo‘lga tushib ov qiladigan bo‘libdilar. Ovlari yana baroridan kela boshlabdi. Ular shahardan taxminan 20-30 chaqirim janubiy g‘arbdagi bir go‘shaga kelib qolibdilar. Bu yerda bir-biriga yaqin tepaliklar bor ekan. Ulardan tevarak-atrof ravshan ko‘rinib turar, shu boisdan bu yerda quyoshning to‘g‘lar osha yuz ko‘rsatishini har tong kuzatish mumkin ekan. Aka-ukalar qo‘nim topgan tepaning quyoshga betkay tomonining chap tarafida mozor ham bor ekan. Azbaroyi qayrag‘ochlar ko‘pligidan u yer qalin o‘rmonga o‘xshar ekan. Yaqin atrof yaxshi ko‘rinib turgani uchun aka-ukalar bu tepani o‘zlariga makon qilib olibdilar. Shu o‘rtada yashovchi dunyodan ko‘z yumgan urug‘-aymoqlarini tepa yonidagi mozorga qo‘yuvchi kishilar bilan do‘st tutinishib, inoqlikda hayot kechira boshlabdilar.

Aka-ukalarni tug‘ilib o‘sgan yurtlari - Jizzaxga yana qaytib borgan yoki bormaganliklari bizga qorong‘u, ammo Jizzaxdan ularni so‘roqlab yo‘qlab keluvchilar ko‘payibdi. Shunday qilib bu sokin go‘shada ham hayot qaynay boshlabdi. Chunki tepalarning atrofida suv serob ekan. Yo‘qlab kelganlar ham bu yerda muqim bo‘lib yashab qolib, oilalar soni tez orada 10-15 taga yetibdi.[4]

Atrofdagi qishloqlarda yashovchilar ham ularning yoniga ko‘chib kela boshlabdilar. Shu sababdan oilalar oz fursatda 50-60 taga borib qolibdi. Xonadonlar soni 20-25 taga yetganidayoq ularning ba‘zilari ikkinchi tepaga ko‘chib o‘tibdilar. O‘sha vaqtlarda tepadagilar bir-birlarini bemalol ko‘rar ekanlar. Keyinchalik yurtdoshlarini izlab, Jizzaxdan Niyoz degan yigit kelibdi. Uni o‘z yurtida Niyozbotir deb ham atashar ekan. Niyozbotir bu yerda o‘zi tengi yosh-yalang

yigitlarga bosh bo‘libdi. Endi bu oilalarning tinchi, farovonligini ko‘rolmaydiganlar ham topila boshlagan ekanda. Qisqasi, Niyoz kelgach tepalar, tepalarning atroflari Niyoz boshliq qishloq – Niyozboshga aylanibdi. Niyoz va uning yigitlarining qishloq tinchini buzuvchi yovlar bilan qilgan murosasiz kurashlari hammayoqqa yoyilibdi. Bora-bora xalq yanada ko‘payibdi. Aholi qishloqni Niyozbosh deyish bilan birga Niyozboshi deb ham ataydigan bo‘libdi.

Darhaqiqat, endigina barpo bo‘lgan qishloq yanada obodonlashib, ariq-zovurlar qazilib, ekin maydonlari kengaya borgan kezlar, ya‘ni XVIII asrda qishloq aholisi tinchligiga rahna soluvchilar ko‘paygan. Keksalar Niyozni qishloq yoshlariga boshliq etib saylashgan. Yovlarga qarshi kurashda faqat Niyozgagina bo‘ysungan. Himoya rejalarini tuzishda unga keksalarning ham maslahatgo‘y o‘lganligini unutmaslik kerak. U dastlab chabdash, botir yigitlar bilan yovlar keladigan yo‘llarga xandaqlar qazib, tepalarga tevarak-atroflarni nazorat qilib turuvchi qorovullarni qo‘ygan. Shu bilan birga sergak yigitlardan bir nechtasining qo‘liga qizil yalovlar berib, daraxtlarning shoxlariga chiqarib, yov qay tarafdin kelayotgan bo‘lsa, yalovni o‘sha tomonga qaratishni buyurgan. Ana shunday chabdash yigitlardan biri Qosim aka Sultonovning katta otasi Sherali aka bo‘lgan ekan. Sherali aka epchil, mard, hushyor bo‘lgani uchun qishloq ahli unga chittak laqabini bergan ekan.

Demak, “Niyoz” ismiga “bosh” so‘zi qo‘shilib sintaktik usulda yangi mahalla nomi hosil bo‘lgan, ya‘ni “Niyozbosh”.

Niyozboshni nega boshqalar egallab ololmadi? Niyoz va uning mard yigitlarining epchilliklari, tadbirkorliklari tufayli yovlarning qishloqqa bostirib kelishlariga chek qo‘yilibdi. Yovlar ham Niyoz boshliq qishloqqa bormaymiz deyigan bo‘libdilar. Niyozbotirning nomi shu tariqa chor-atrofga yoyilibdi.

Shu tariqa qishloqda odamlar tug‘ilishi hisobiga, shuningdek, avvalo, Toshkent va Jizzaxdan va qolaversa, eski qovunchi taraflardan oilalarning ko‘chib kelish hisobiga aholi soni ko‘payadi. Mozorariq, Qozoqariq, shuningdek, nomlari bizga noayon yana ko‘plab ariqlar, quduqlar qaziladi. Yangi-yangi arpa, sholi, bug‘doy yetishtiriladigan ekinzorlar baropo bo‘ladi, uzumzorlar paydo bo‘lib savdo-sotiq ishlari avj oladi. Turli ko‘chmanchi yovlarga qarshi kurash qishloq ahlini yanada bardoshli, mard va matonatli bo‘lib yetishishiga sabab bo‘ladi. Qamish, qiyloqlardan qurilgan chaylalar o‘rnini loy shuvoqli, paxsa devorli uylar oladi. Keyinroq eski uslubda ta‘lim-tarbiya beruvchi maktablar faoliyat ko‘rsata boshlaydi, undan so‘ng yangi tuzumdagi maktablari kengayadi, raislar, oqsoqollar ish boshlaydilar, qurilish ishlari avj oladi. Tuproq, loy ko‘chalar tosh ko‘chalarga aylanadi, asfaltlangan ko‘chalarda elektr chiroqlari porlab, ko‘cha va xonadonlar ziyolarga to‘ladi. Bundan bilish mumkinki, Niyozboshda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz el vakillari istiqomat qiladi.

Mozor va Qozoq so‘zlariga + ariq so‘zi qo‘shilib = Mozorariq, Qozoqariq - kompozitsion usulda hosil bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi.

Niyozbosh haqida ushbu ma‘lumotlarni bergan Tursunboy ota Azimiy Niyozboshining shoirlardan biri bo‘lgan. U “Yangiyo‘l” tuman gazetasi qoshidagi G‘.G‘ulom nomidagi “Orzu” adabiy uyushmasining faol a‘zosi, tashkilotchilaridan biri edi.

Mazkur ma'lumotlarni xalq orasida saqlanib qolganicha bayon etishga harakaat qildik. Biroq inson ismining joy nomiga ko'chishi ko'p uchraydigan lingvistik hodisadir. Xususan, Alp Er To'ngani forsiylar Afrosiyob deb atashardi, U qurdirgan shahar ham uning ismi bilan Afrosiyob deb atalgan va bu shahar qoldiqlari Samarqandda. Shuningdek, u Barsag'an ismli o'g'li uchun qurdirgan Barsag'an shahari hozirgi Qirg'izistonda joylashgandi. Inson ismlari toponimlarga, etnonimlarga ko'chishi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi. Turk ismining millat nomiga ko'chishi shular jumlasidandir.[5]

XULOSA

Insoniyatning eng qadimgi tarixi haqida keltirilgan mazkur parchada inson ismining ma'lum bir millatning nomiga ko'chganligi isbotlangan. Xuddi shunday inson ismining joy nomiga ko'chishi ham me'yoriy lingvistik hodisa.

Antroponimika – (antropo..+ yun. onyma – nom. Onomastikaning kishi ismlari, ularning kelib chiqishi, tarqalishi va sh.k. masalalarni o'rganuvchi bo'lim.

Toponim nima? Joy nomlari. O'zbekiston toponimlarining leksik-semantik tasnifida terminologik bir xillik yo'q.

Etnonim – (yun.ethnos – qabila,xalq + onyma – nom) xalq, qabila, urug' va bir xil etnik uyushmalar nomi. Ko'pgina etnonimlarning o'tmishda urug' va qabila boshliqlarining nomidan olingani shubhasizdir.

Demak, Niyozbosh mahallasining kelib chiqish tarixi kishi nomidan joy nomiga ko'chgan. Shunga ko'ra yashagan va yashayotgan xalqning kelib chiqish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qabilalar asosan Buxoro amirligidan kelgan Jizzaxliklarni tashkil etgan o'zbek va qozoq millat vakillarini ko'rish mumkin.

Xullas, Yangiyo'l tumanining janubi-g'arbiy tomoni bo'lgan Niyozbosh hududi aholisi Yangiyo'l aholisining asosiy qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Abdurazzoqov A. Taxtako'prikdan Sirg'aligacha, "Hilol nashr" Toshkent – 2015- yil.
2. Арнольд И.В. Современные лингвистические теории взаимодействия систем и среды // Вопросы языкознания. – М.: *Институт русского языка им. В.В. Виноградова РАН*, 1991. № 3. – С. 119.
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилик тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир. Халқ сўзи газетаси. – 2019 йил 22 октябрь, 218-сон. – Б. 3.
4. Емелин С.Ф. Янгийульцы в годы войны (1941-1945) Ташкент – 2005
5. Haydarova Z. Umirboyev S. Topilov O. Yemelin S, "Ona shahrim – g'ururim, faxrim", 2009-yil.